



NATURAL GEOGRAPHIC LOCATION OF PARKENT DISTRICT OF TASHKENT REGION AND ITS TOURIST (PILGRIMAGE TOURISM) ASPECTS

Javohir M. Giyazov

Master student

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Javohirgiyozov94@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: mountains, mountain valleys, canals, streams, rocks, relief, climate, exotic. tourism, ecological tourism, wildlife sanctuary, national nature park, ecological trail, ecological route.

Abstract: This article provides general information about the natural geographical location of Parkent district. Also, important aspects of tourism are highlighted due to the natural geographical features of the district.

Received:

Accepted:

Published:

TOSHKENT VILOYATI PARKENT TUMANINING TABIIY GEOGRAFIK O'RNI VA UNING TURISTIK (ZIYORAT TURIZMI) JIHATLARI

Javohir M. G'iyozov

Magistrant

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti

Javohirgiyozov94@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: tog', tog' vodiysi, kanal, soy, tog'jinsi, relyef, iqlim, ekzotik turizm, ekologik turizm, buyurtma, qo'riqxonona (zakaznik), milliy tabiat bog'i, ekologik mashrut.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Parkent tumani tabiiy geografik o'rni haqida umumiy ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, tumanning tabiiy geografik xususiyatlaridan kelib chiqib, turizmdagi ahamiyatli tomonlari yoritilib berilgan.

ПРИРОДНО-ГЕОГРАФИЧЕСКОЕ ПОЛОЖЕНИЕ ПАРКЕНТСКОГО РАЙОНА ТАШКЕНТСКОЙ ОБЛАСТИ И ЕГО ТУРИСТИЧЕСКИЕ (ПАЛОМНИЧЕСКИЕ) АСПЕКТЫ

Джавахири М. Гиязов

Магистрант

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Javohirgiyozov94@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: горы, горные долины, каналы, ручьи, скалы, рельеф, климат, экзотика. туризм, экологический туризм, заказник, национальный

Аннотация: В данной статье приведены общие сведения о природно-географическом положении Паркентского района. Также выделены важные аспекты

KIRISH

Bugungi shiddat bilan o'sib borayotgan davrda mamlakatimizda regional turizmni rivojlantirishga e'tibor kuchaytirilmoqda. Xususan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 16-avgustdagi —2018-2019-yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risidagi qarori qabul qilinishi sohani jadal rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy, ma'muriy va huquqiy muhitni yaratib, hududlarning iqtisodiy salohiyati va daromadlari bazasini kengaytirish, yurtimizga keladigan turistlar oqimini ko'paytirish, shuningdek, milliy turizm mahsulotlarini jahon bozorida faol ilgari surishga qaratilgan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2017 yilga kelib O'zbekistonga 2 million 700 ming, 2018 yilda 5 million 300 mingdan ortiq turistlar tashrif buyurgan. Mazkur sohani yanada rivojlantirish maqsadida 2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Mazkur konsepsiyaga ko'ra 2025 yilga kelib xorijlik sayyohlar sonini 9-10 million nafarga oshirish, turli ko'rgazmalar, tanlovlar o'tkazish, O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirish, shu tariqa turizmni rivojlantirish rejalashtirilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi 2018 yil 7 fevraldagi —Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-3514-sonli qarorining qabul qilinishi hamda viza tizimining isloh etilishi, jumladan, 2019 yildan boshlab 45 ta davlatga vizasiz tizimning joriy etilishi O'zbekistonda turizm industriyasini yanada rivojlanishiga yo'l ochib berdi.

ASOSIY QISM

Ziyorat – muqaddas joylarga tashrif buyurish degan ma'noni anglatadi va ziyorat turizm va ma'rifiy yo'nalishda diniy turizmni o'z ichiga oladi. Ziyorat turizm atamasi ziyorat va turizm kabi ikki so'z birikmasidir. Bunda turizm so'zi fransuz tilida tourisme – sayohat qilish, dam olish bilan bir qatorda sport va umumtarbiyaviy yoki siyosiy-ma'rifiy vazifalarni bajarish degan keng ma'noli tushuncha. Ziyorat muqaddas joylarga, mozor va qabristonlarga borib muayyan diniy-ma'rifiy ibodatlarini bajarib kelish tushuniladi. Muqaddas joylar maqomiga ega bo'lgan obyektlar diniy nuqtai nazardan biror – bir hodisa sodir bo'lgan joylar, barcha davrdagi buyuk avliyolari va ularning safdoshlari dafn qilingan joylar, yo'qolgan dinlarning muqaddas joylari, ko'p yillik ziyoratgohlar obyektlari joylardagi tabiatning ko'rinmas kuchlari yaratgan yagona tabiiy landshaftlardir. Ziyorat tushunchasi diniy markazlarga, sayyohlar uchun odatiy muhitdan tashqarida bo'lgan muqaddas joylarga sayohat qilish hisoblanadi. Ziyorat an'analarning rivojlanishi barcha asosiy dinlar uchun xos. Bugungi kunda turizm sohasi juda ham tez sur'atlarda rivojlanib, sayohat va tarixiy turizm, ziyorat, ekoturizm, ta'lim turizmi, sport, tibbiyot turizmi kabi yo'nalishlari ko'payib bormoqda. O'zbekistonda turizm va rekreatsiyani rivojlantirishning geografik muammolari va imkoniyatlari, ko'plab yo'nalishlarda xalqaro turizm bozorida raqobat kundan kunga oshib bormoqda. Toshkent viloyatining tog'li va tog' oldi hududlarini o'z ichiga olgan viloyat o'zining tabiiy, tarixiy rekreatsion obyektlarga boyligi, tabiatning takrorlanmasligi va Respublika ahamiyatiga ega bo'lgan infratuzilmalarning shakllantirilganligi bilan ajralib turadi. Bu esa tumanda ziyorat turizmni tashkil qilish va amaliyot bilan bog'lash imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Hozirgi kunda viloyatda 73 ta dan ortiq ziyoratgohlar mavjud. O'zbekistonning turli mintaqalarida, jumladan, Toshkent viloyatida turizmning qator

turlari, ayniqsa, ziyorat turizmini rivojlantirish imkoniyatlari katta. Toshkent viloyati turizmni rivojlantirish uchun hududning jozibadorligini oshirish eng avvalo, uning tarixiy-madaniy salohiyatini bilishga qiziqishni kuchaytirish. Ya'ni viloyatdagi tarixiy yodgorliklar, memorial ziyoratgohlar va boshqa ma'naviy-madaniy yodgorliklar, xalq hunarmandchiligi, muzeylar haqida aniq ma'lumotlar berish orqali turistlarda yanada ko'proq qiziqish uyg'otish. Buning uchun Toshkent viloyatida mavjud turistik obyektlarga, ziyoratgohlarga jalb qilish uchun ma'lumotlar berib borilishi va infratuzilmalar yaratilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5611-son Farmonida "Turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, viza rejimini liberallashtirilish, turizm infratuzilmasini kengaytirish" masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Ma'lumki, turizmni rivojlantirishda rekreatsion, turistik obyektlar hamda turistik marshrutlar dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda turizm shiddat bilan rivojlanayotgan sohalardan biridir. Ayniqsa, tog'li hududlarda joylashgan tumanlarning tabiati, iqlimini o'ziga xosligi turizmni rivojlantirish uchun qulay imkoniyat yaratib beradi. Ana shunday hududlar danbiri Toshkent viloyatining Parkent tumanidir.

Parkent tumani – Toshkent viloyatining tog' va tog'oldi qismida joylashgan hudud bo'lib viloyatning shimoli-sharqiy qismida joylashgan. Tuman tog'oldi hudud bo'lganligi sababl itabiati xushmanzara ko'rinishga ega. Parkent tumani G'arbiy Tyanshanning Chotqol tizmasi g'arbiy etaklarida joylashgan. Hudud tog'lar bilan o'ralgan. Yer yuzasi g'arbdan sharq tomonga qarab balandlashib boradi. Relyefi xilma-xil bo'lib, tog'old itekisligi, adir va tog'lardan iborat. Tekisliklarda tipik bo'z tuproq, adirlarda to'q-bo'z tuproq, tog' zonasida esa tog'-o'rmon tuproqlari keng tarqalgan. Iqlimi tog'oldi va tog' iqlimiga xosligi bilan ajralib turadi. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Parkent hududining rekreatsion resurslaridan foydalanish va turizmni rivojlantirishning asosiy omillaridan biri bu qulay iqlim sharoiti, tog' va baland tog' zonalarini qoplagan tog'-archa o'rmonlari, sub alp va alp o'tloqlari, quruq iqlim va sof havo, uzoq davom etuvchi qulay harorat, organism uchun optimal nisbiy namlikning mavjudligidir. Bu ko'rsatkichlar bo'yicha mamlakatimizdagi eng qulay rekratsion hududlardan biri va bu yerda iqlim bilan davolash, dam olishni tashkil etish uchun maqbul imkoniyatlar yetarli darajada. Tuman hududida turistlarni jalb qiladigan ekzotik geografik (landshaft) obyektlaridan biri Ugom-Chotqol Davlat milliy tabiat bog'idir. Bu yerda tashrif buyurgan turistlarni tabiatning noyob hodisalari: tog' relyefi, noyob o'simliklar, archazorlar, sharsharalar, noyob hayvon turlari, mag'rur turgan cho'qqilar, nurash natijasida hosil bo'lgan turli xil shakllarning mavjudligi turistlar e'tiborini befarq qoldirmaydi. Shuning uchun ham Parkent tumanida rekreatsion turizmni rivojlantirish, shuningdek, turistik zonalar hamda tog' turizmi markazlarini tashkil etish, mehmon uylari faoliyatini yaxshilash varivojlantirishning tabiiy geografik asoslarini ishlab chiqish muhim vazifa

bo‘lib qolmoqda. Hozirda mamlakatimiz tog‘larining turistik va rekreatsion obyektlari xalqaro hamiyatga egabo‘lib, Zomin, Bo‘stonliq, Parkent va boshqa shaharlarning xushmanzara landshaftlari va tog‘larga yaqin joylashganligi xorijlik sayyohlarni e‘tiborini tortmoqda.

“Zarkent Buva” ziyoratgohi Chotqol tog‘ tizimlarining g‘arbiy yonboshida ko‘hna Zarkent qishlog‘ining yuqori qismida joylashgan Makka Madina shaharlari bilan fazoviy bir tug‘ri chiziqda joylashgan. Bu joyda avliyo Zarkent ota qabri joylashganligi tan olingan. Asli Suryaning Molotiya shahrida tug‘ilgan arab millatiga mansub Sayid Jafar Goziy zamonasining bilimli odamlariga yaxshilik qiluvchi Islom madaniyati va dinining faol targ‘ibotchisi bo‘lgan.

“Xazrati Ali buva” ziyoratgohi tumanning Kumushkon qishlog‘ida joylashgan bo‘lib rivoyatlarga qaraganda Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) ning kuyovlari xazrati Ali (r.a) shu yerlarga ma‘naviyat- ma‘rifat va islom dinini tarqatish maqsadida kelgan paytarida namoz vaqti bo‘lib qolganligi tufayli to‘xtagan tahorat olishlari uchun suvlari bo‘lmaganligi sababli Alloh taolodan suv so‘rab duo qilganlarida Alloh taolo u kishiga shuni ayon etibdurki qo‘lingni yerga ur shunda Ali(r.a) shunday qilganlarida yerdan buloq chiqqan ekan. Xazrati Ali r.a qo‘lidagi asolarini o‘sha buloqqa sanchib qo‘yib tahorat oib namoz o‘qib duo qilgan ekanlar, so‘ngra o‘sha asolari chinorga aylanibdi. Bu yerga kelgan musulmonlar nima niyat bilan kelib duo qilishsa ularni niyatlariga yetkazgin deb duo qilgan ekanlar so‘ngra u yerdan ketipti. Xazrati Ali ziyoratgohi 2010-yilda Parkent tumani hokimining qaroriga binoan homiyilar va xashar yo‘li bilan qurilib 2014-yilda qayta rekonstruksiya qilindi.

“Said ota” ziyoratgohi Parkent tumani Xo‘ja mahalla fuqarolari yig‘inida joylashgan “Said Mavlon” qabristoni mavjud bo‘lib taxminan 1930-yillarda barpo etilgan. Diqqatga sazovor joylardan biri. “Said Mavlon” qabristonining nomlanishiga sabab, ushbu qabristonga birinchi bo‘lib, dafn etilgan. Marhumning familiya va ismi Mavlonov Said bo‘lgan. Shu sababli o‘sha davrdan boshlab qabriston nomi “Said Mavlon”deb atalgan.

“Parpati buva” ziyoratgohi Parkent tumani Nevich qishlog‘ining boshlanish qismi, sharqiy tomoni Qizilsoy soyining chap tomonida Chotqol tog‘ining yon bag‘rida tabiiy xolatda paydo bo‘lgan. Bir necha asrlardan buyon shu joydagi teshik toshdan xasta odamlar va bolalar teshiq toshdan o‘tkazilib dardlariga darmon topgan.

“Boxangar buva” ziyoratgohi Qadimda 7 aka-uka bo‘lib, ular Zangi buva, Boxangar buva, Bobo Mochin buva, Zarkat buva, Parpata buva, Oq ota buva, Bolpushta buvalar bo‘lgan. Ular Makkai-Madina shahridan kelib, “Bohangar buva” joylashgan manzilda yashagan. Parkent tumanining “Xo‘ja” maxallasiga o‘tib, bu yerda suv yo‘q, qanday yashayman deganida. Sen shu yerda qolgin men o‘zim senga suvni yuboraman deb Zarkat buva soy yoqalab ketayotib xassasini urgan joylardan buloq suvlari chiqqan. Shu kunga qadar ushbu buloq suvlaridan aholi foydalanib kelishmoqda.

“Bobomochin” Parkent tumani Parkent shahri 2-mahalladagi “Bobomochin” Qabriston xududida qurilgan “Bomochin” masjidi «Parkent shahar Soveti ijroiya qo‘mitasining 1990-yil 26-dekabr»dagi 12/80 raqamli qarori bilan ajratilgan, 0.15 ga yer maydoniga ega axoli tomonidan 1991-yilda hashar yo‘li bilan qurilgan bo‘lib, xozirgi vaqtda kengaytirilib bir yo‘la 1500 kishi ibodat qiladi.

Parkent tumani tabiiy sharoitlarining rang-barangligi, ajoyib tog‘ tabiati, musaffo havosi, shifobaxsh ma‘danli buloqlari, muqaddas qadamjolari bilan alohida ajralib turadi. Parkent tumani o‘zining dam olish maskanlari bilan ham mashhur. Hozirgi kunda tumanda 10 yaqin ziyoratgohlar mavjud bo‘lib, ular orasida Islom qadriyatlari hukmron bo‘lgan O‘rta Osiyo davlatlarining borligi mamlakatimizda ushbu tarmoqni rivojlantirish imkoniyatlari kattaligidan dalolat beradi. Parkent tumani o‘zining dam olish maskanlari bilan ham mashhur. Bu yerda mavsumiy va doimiy dam olish uylari, 10 dan ziyod bolalar yozgi oromgohlari va bir qancha korxonalar chorbog‘lari mavjud. Dam olish uylari yil davomida viloyatlar va xorijdan kelgan 10 mingdan ortiq kishiga xizmat ko‘rsatadi. Mazkur dam olish uylari yil davomida mamlakatimiz va xorijdan kelgan 10000 dan ortiq fuqarolarga xizmat ko‘rsatadi. Shu o‘rinda, tuman hududida hali foydalanilmagan ulkan zahiralari ham mavjudligini aytib o‘tish joizdir. Parkent shahridan 2-3 km sharqda karbon davrining ohaktoshlari, perm, trias davrining granitlari, porfirli tarqalgan. Bu tog‘ jinslaridan qurilish xom-ashyolari ishlab chiqarishda foydalanish imkoniyati mavjud. Tumanda “O‘zbek koinot” ilmiy ishlab chiqarish birlashmasining eksperimental bazasi, dam olish uyi va sayyohlik maskani joylashgan. Tumanning Nevich qishlog‘i hududining sharqiy qismida qoya toshlarga bitilgan petrograflar mavjud. Arxeologik qazilmalar natijasida hozirgi “Koinot” tajribagohi hududida, qadimiy turar joylar, qabristonlar, metallshunoslik izlari aniqlangan. Bu yerda “So‘qoq”, “Kumushkon” oromgohlari va yozgi mavsumda ishlaydigan “Sumcha”, “Qizilsoy” dam olish uylari, o‘ndan ortiq bolalar yozgi dam olish maskanlari va korxonalarining chorbog‘lari mavjud.

XULOSA

Xulosa o‘rnida aytish joizki bugungi kunda muqaddas ziyoratgohlar tarixini bilish, mazkur qadamjolarining tarbiyaviy-ma'naviy salohiyatini oshirish davr talabiga aylandi. Tarixiy obidalar, osoriatiqalar, maqbara va qadamjolar bilan bog'liq manbalarni tahliliy o‘rganish, tosh bitiklardagi yozuvlardan voqif bo‘lish ziyoratgohlar bilan bog'liq tarixiy voqelikni chuqur anglashga, o‘tmish to‘g‘risidagi ilmiy qarashlarni yanada kengaytirishga asos bo‘ladi. Asrlar davomida avaylab-asrab kelinayotgan bunday ziyoratgohlarning milliy ma'naviyatimiz tarixida tutgan o‘rnini tadqiq etish bugungi kundagi dolzarb masalalardan sanaladi. Islom an'analari asrlar davomida Markaziy Osiyo xalqlari boy madaniy merosi bilan qo‘shilib, bu yerda ma'naviy-ma'rifiy hayotda aks etgan hamda

fan va ta'limning rivojlanishiga o'z muhrini bosgan alohida musulmon madaniyati shakllanishiga zamin yaratgan va ko'maklashgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 -yil 7 -fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
2. Karimov, N. (2022). THE CENTRAL ASIAN RENAISSANCE OF THE IX-XII CENTURIES IN THE EYES OF FOREIGN RESEARCHERS. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(03), 28-45.
3. Alibekov L. "Tog' turizmi: qulay sharoit, imkoniyat va daromadlar". O'quv qo'llanma. – Samarqand, 2019. 36-b.
4. Lapasovich, M. O., Nematovich, N. O., Yakubovich, Z. B., Rustamovich, U. M., & Tolipov, F. (2020). Historical and ethnographic characteristics and socio-spiritual factors of visiting tourism in Uzbekistan. *Journal of Critical Reviews*, 7(6), 47-50.
5. Saypiddinov Z. "Toshkent viloyatining bioiqlimiy komfor tsharoitlari" ilmiy maqola. - T.: 2020, 28-b.
6. Go'dalov, M. R. (2014). Nature of Jizzakh region and its protection.-T.:". *Science and technology*.
7. Abdullayev S.I., Murtazayev B.Ch. Ziyorat turizmi va sakral geografiyaning vazifalari. O'zbekiston Geografiya jamiyati X syezdi materiallari. – T., 2019.-22 – 24b.
8. Yunusova, G. N. (2019). THE MODERN LINGAFON ROOMS AND THEIR SOFT WARE. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(4), 333-341.
9. Eraliyev B., Ostonaqulov I., Abdulahatov N. O'zbekiston ziyoratgohlari va qadamjolari. O'zbekiston geografiya jamiyati 3-jild. – T.: 2015. – 295 b.